

O'ZBEKISTON ISHSIZLIK DARAJASI, UNING SABABLARI VA UNI KAMAYTIRISH YO'LLARI

Sobirova Adolat Nodirbekovna

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
1-bosqich talabasi*

Ilmiy rahbar: Shoislomova Komila Botirovna

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
Umumiy iqtisodiyot kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston ishsizlik darajasi 2019-2025 yillar oralig'ida o'rganib chiqiladi va uning sabablari tahlil qilinadi. Ishsizlik darajasining iqtisodiy o'sishga va aholi daromadlariga ta'siri o'rganiladi. Shuningdek, ishsizlik va uning sabablari muhokama qilinadi, kamaytirish uchun bir qator ko'rsatmalar va yechimlar beriladi. Mamlakatimizdagi ishsizlik muammosi va uni hal etish uchun maxsus tavsiyalar beriladi va ishsizlikni kamaytirish uchun dasturlar ko'rib chiqiladi. Tadqiqot davomida olimlarning o'rgangan dasturlar ko'rsatib o'tiladi, shu bilan birga natijasi ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Ishsizlik darajasi, bandlik, yoshlar, iqtisodiy o'sish, mehnat bozori, raqamli iqtisodiyot.

Аннотация: В данной статье исследуется уровень безработицы в Узбекистане за период 2019-2025 годов и анализируются его причины. Изучается влияние уровня безработицы на экономический рост и доходы населения. Также обсуждаются безработица и ее причины, предлагается ряд рекомендаций и решений по ее снижению. Представлена проблема безработицы в нашей стране и даны конкретные рекомендации по ее решению, а также рассмотрены программы по снижению безработицы. В ходе исследования представлены программы, разработанные учеными, и проанализированы их результаты.

Ключевые слова: Уровень безработицы, занятость, молодежь, экономический рост, рынок труда, цифровая экономика.

Abstract: This article studies the unemployment rate in Uzbekistan for the period 2019-2025 and analyzes its causes. The impact of the unemployment rate on economic growth and incomes of the population is studied. Unemployment and its causes are also discussed, a number of guidelines and solutions are given to reduce it. The problem of unemployment in our country and specific recommendations are given to solve it, and programs to reduce unemployment are considered. The programs studied by scientists are presented during the study, and their results are also analyzed.

Keywords: Unemployment rate, employment, youth, economic growth, labor market, digital economy.

KIRISH

Hozirgi kunda O'zbekiston rivojlanib borayotgan davlatlar qatoriga kiradi. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning muhim bosqichida turibdi, davlatning barqarorligi uchun mehnat bozorida holat juda muhim hisoblanadi. Aholining 60 foizidan ortig'i mehnatga layoqatli yoshlardan iborat ekanligi va har yili mehnat bozoriga yuz minglab yoshlar kirib kelishi ishsizlik muammosining asosiy sabablaridan biridir. Pandemiya, global iqtisodiy beqarorlik va energetik narxlarining o'sishi ham ish o'rinlarining kamiyishiga olib kelmoqda. Rasmiy statistika 2025-yil 3-choragiga ko'ra, ishsizlik darjasi 4,9 foizni tashkil etganligini ko'rsatadi.

Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiy siyosatida aholi bandligini oshirish va ishsizlikni kamaytirish ustuvor vazifalardan biri deb belgilanmoqda. Mamlakatda iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi, tadbirkorlikni qo'llab quvvatlash, raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi mehnat bozori tarkibiy o'zgarishiga ta'sir qilmoqda.

Iqtisodiyotda ishsizlik sabablarini o'rganishning asosiy maqsadi bu bandlik darajasini yaxshilash orqali mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga, aholining turmush darajasi yaxshilanishiga yordam beruvchi chora-tadbirlar ishlab chiqishga ko'maklashadi. Bu esa puxta tuzilgan strategik qadamlarni va islohotlarni talab etadi.

Ishsizlik va bandlik mavzulari turli olimlar tomonidan o'rganilgan. Ular ilmiy izlanishlar orqali sabablarini topishga harakat qilishgan. Karimova (2022), M.Hasanova (2024) tomonidan olib borilgan izlanishlar natijasida ishsizlikning sabablaridan biri malaka va ta'lim tizimining mehnat bozoriga mos emasligi ekani ma'lum bo'lgan va shu sababdan yoshlar orasida ishsizlik darajasi oshib ketayotgani aniqlangan.

F.D.Hojiqulova, O.Eshonquvvatov (2023) larning tadqiqotlari natijasida mehnat bozorida o'zgarishlarga sun'iy intellekt ta'sir qilayotgani aniqlandi. Shuningdek, Sh.M.Ortiqov (2024) bandlikni ta'minlash masalalarini statistik tahlil qilgan. N.X.Turopova (2023) esa O'zbekistondagi hududlarning ishsizlik taqsimotini o'rganib chiqqan. Sadriddinova S. (2024), Raxmatullayeva Sh. bandlik darajasini oshirish uchun yoshlarni rivojlanayotgan texnologiyalarga mos keladigan yangi kasblarga o'qitish orqali mamlakatda ishchilar malakasini oshirish kerak degan xulosaga kelishdi. Shuningdek, Aliyev D. yoshlar va ishsizlar uchun bepul yoki subsidiyalangan kasb-hunar o'rgatish kurslarini tashkil qilish kerak deb fikr bildirdi.

O'zbekiston ishsizlik darajasini kamaytirish mamlakatimizning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lganligi tufayli unga kompleks va tizimli chora tadbirlar

ishlab chiqilishi juda muhim hisoblanadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-2026 yillarni o'z ichiga oluvchi "ish bilan bandlik va mehnat munosabatlarini rivojlantirish strategiyasi" tasdiqlandi, bundan maqsad shuki, aholining ayniqsa yoshlar va ayollarning bandligini oshirish, norasmiy mehnatga qarshi kurashish va kasbga yo'naltirish tizimini kuchaytirishdir. O'zbekiston ishsizlik muammosini hal qilish uchun Kasb- hunar va qayta tayyorlov tizimini kuchaytirishni asosiy yo'nalishdan biri sifatida belgilagan bo'lib, uning maqsadi kasbga yo'naltirish va qayta tayyorlash tizimi orqali mehnat bozorining talablariga mos keladigan mutaxassis yetishtirish hisoblanadi. 2023-yilda Bandlik vazirligi tomonidan 250 mingdan ortiq fuqaro qayta o'qitilib, ulardan 70 foizi ish bilan ta'minlangan. Yana bir asosiy yo'nalishi bu Tadbirkorlik va o'zini-o'zi band qilishni rag'batlantirish, ya'ni "Ishsiz aholini tadbirkorlikka jalb qilish", "Yoshlar daftari", "Ayollar daftari" kabi dasturlar orqali aholiga imtiyozli kreditlar, subsidiyalar ajratiladi. 2023-yilda 700 mingdan ortiq fuqaroga o'z biznesini boshlashi uchun iqtisodiy yordam ko'rsatilgan. Ishsizlik darajasi ayollarda balandligi sababli "Ayollar daftari" orqali tikuvchilik kabi sohalarda ayollar uchun ish o'rinlari tashkillashtirilmoqda, 2023-yilda 200 mingdan ortiq ayollar bandligi ta'minlangan.

Xizmat ko'rsatish sohasi bugungi kunda iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan va yangi ish o'rinlarini yaratishda yetakchi o'rin tutayotgan tarmoqlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, turizm, transport-logistika, ta'lim va sog'liqni saqlash kabi yo'nalishlarda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida minglab yangi ish o'rinlari yaratilmoqda va bu aholi bandligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, hududlarda "Hududiy xizmatlar markazlari" ning tashkil etilishi fuqarolarga o'z yashash joyiga yaqin hududlarda ish topish imkoniyatini kengaytirib, ichki mehnat bozorining barqaror rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi faoliyati orqali Rossiya, Janubiy Koreya, Birlashgan Arab Amirliklari va Polsha kabi davlatlar bilan hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilib, fuqarolarni xorijda qonuniy va tartibli mehnat faoliyati bilan shug'ullanishi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Mazkur tizim nafaqat ichki mehnat bozoridagi ishsizlik darajasini kamaytiradi, balki fuqarolarning daromadlarini oshirish, ularning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish hamda xalqaro mehnat tajribasini egallashiga ham xizmat qiladi. Shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi va tashqi mehnat migratsiyasining tartibga solinishi mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, aholining turmush darajasini oshirish hamda ijtimoiy farovonlikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Shuningdek, mamlaktimizning turli hududlarida ishsizlik darajasi turli bo'lib bir tekis taqsimlanmagan va bu mehnat bozoridagi muammolardan biridir. Masalan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Surxondaryo viloyati, Jizzax viloyati va NAvoiy viloyatlarida mehnatga layoqatli aholi sonining yuqorili bo'lishiga qaramasdan ish o'rinlarining yetishmasligi ishsizlikka olib keladi. Shu sababli davlat tomonidan "Hududiy investitsiya loyihalari" doirasida sanoat zonalarini, agroklastarlar va servis markazlarini tashkil etish orqali yangi ish o'rinlarini yaratish va hududiy nomutanosiblikni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bunday yondashuv nafaqat iqtisodiy faollikni oshiradi, balki hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni qisqartirishga ham xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqot va izlanishlarning natijalari va ilmiy takliflarga asoslanib aholini ish bilan ta'minlash borasidagi muammolarni yechish va tavsiya etilgan dasturlarni amaliy tadqiq etish lozim. Mazkur maqolada aniq va foydali xulosaga kelish maqsadida faqatgina ishonchli va rasmiy manbaalardan World bank, Stat.uz saytlaridan olingan ma'lumotlardan foydalanilgan.

Tadqiqot ishsizlik sabablarini va unga yechimlarni chuqur tahlil qilib o'rganish maqsadida tahlil usuli yordamida olib borildi. Ushbu muammoga doir ma'lumotlar yig'ib, umulashtirib muammo o'rganildi va xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Mehnat bozorining asosiy ko'rsatkichlaridan biri bu ishsizlik darajasi bo'lib, u doimiy ish joyiga ega bo'lmagan va ishga kirishga tayyor lekin hozirda ishga ega bo'lmagan shaxslar yig'indisi hisoblanadi. So'nggi yillar ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda ishsizlik darajasi kamayayotgani kuzatilmoqda. Ammo 2020-yilda Covid-19 pandemiyasi sababli 10,5% ni tashkil etgan, sababi zavodlar yopilishi natijasida ish o'rinlari kamayib ketgan. 2022- yilda esa 8,9 % ga yetgan, bu ijobiy natija bo'lib oldingi ya'ni 2021-yildagidan 0,7 % ga kamaygan. 2023-yilda ham sezilarli darajada pasayish kuzatildi ya'ni 6,8% ga tushdi. 2024-yil ma'lumotiga ko'ra, ishsizlik darajasi 5,8% ni tashkil etgan. (1-jadval)

Yil	Ishsizlik darajasi	Bandlik darajasi
2019	9,0	91
2020	10,5	89,5
2021	9,6	90,4
2022	8,9	91,1
2023	6,8	93,2
2024	5,8	94,2

1-jadval. O'zbekiston ishsizlik darjasi (2019-2024 yillar tahlili)

Texnologik o'zgarishlar natijasida ya'ni avtomatlashtirish va sun'iy intellekt natijasida oddiy va takrorlanuvchi vazifalarni bajaruvchi ish o'rinlari qisqartirilmoqda, lekin shunga qaramasdan yangi ish o'rinlari paydo bo'lishiga ham sabab bo'lmoqda. Umuman olganda, texnologik omillar mehnat bozorining o'zgarishiga sabab bo'layotganligi tufayli bu o'zgarishlarga moslashish uchun ta'lim va malaka oshirish dasturlarini rivojlantirish lozim.

O'zbekistonda keyingi yillarda bandlik darajasi oshishi, shuningdek ishsizlik darajasi kamayishi kutilmoqda, chunki bunga jiddiy e'tibor qaratilib bir qator dasturlar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijasi shuni ko'rsatadiki, 2021-tilda 9,6 % ni

ko'rsatgan ishsizlik darajasi 2024-yilga kelib 5,8 % ga pasaydi. Bunga sabab albatta hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash dasturlari deyish mumkin. Shunday bo'lishiga qaramasdan, ishsizlik muammosi hali ham dolzarb muammoligicha qolmoqda. Bu muammoni yanada samarali yechish uchun kompleks yondashuv zarur.

XULOSA

O'zbekistonda ishsizlik darajasini pasaytirish maqsadida tizimli ishlar olib borilmoqda, bu o'z samarasini beryapdi avvalgi holatga qaraganda bandlike darajasi oshgan. Bandlik darajasini oshirish maqsadi olib borilayotgan tizimli dasturlar nafaqat bandlike ko'rsatkichlarini yaxshilash uchun balki iqtisodiy jihatdan samarali ish o'rinlarini yaratishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi (2023) Soliq siyosati va soliq ma'muriyatchiligini rivojlantirish konsepsiyasi. Toshkent. Available at: <https://gov.uz/en/soliq> (Accessed: 31 March 2026).

2.G'ulomov, S.S. & To'rayev, A. (2022) Statistika nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: TDIU nashriyoti. Available at: <https://tsue.uz/> (Accessed: 31 March 2026).

3.Asrayev, S.H. (2025) 'O'zbekiston mehnat bozorida bandlike va ishsizlik muammolari: sabablari va yechimlar', *New Scientific Perspectives at the Intersection of Language, Culture, and Technology*, 1(2), pp. 23–26. Available at: <https://worldconferences.us/index.php/nsp/article/view/349> (Accessed: 31 March 2026).

4.Mirzaaliyev, A.A. (2026) 'Mehnat bozori va ishsizlik muammolarining iqtisodiy oqibatlarini', *Obrazovanie, Nauka i Innovatsionnye Idei v Mire*, 87(4), pp. 196–200. Available at: <http://journalss.org> (Accessed: 31 March 2026).

5.Ochilov, M.T. (2025) 'O'zbekistonda ishsizlik darajasining dinamikasi va uni kamaytirish omillari (2018–2025 yillar tahlili)', *Yangi Renessansda Ilm-fan Taraqqiyoti*, 1(2), pp. 101–104. Available at: <https://phoenixpublication.net/index> (Accessed:31 March 2026).

6.Razikova, G.S. (2025) 'Statistical Research on Ways to Increase Employment of The Population of The Republic of Uzbekistan', *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, 6(3), pp. 731–734. Available at: <https://cajitm.casjournal.org/index.php/CAJITMF/article/view/916> (Accessed: 31 March 2026).

7.Tursunov, H.T. & Ilyasov, A.A. (2026) 'Ishsizlik, uning turlari va O'zbekistonda bandlik muammolarini', *Yangi O'zbekiston. Yangi tadqiqotlar jurnali*, 4(1), pp. 187–195. Available at: <https://phoenixpublication.net/index.php/TTVAL/article/view/9549/9371> (Accessed: 31 March 2026).

8.Islomov, SH. (2025) 'Ishsizlik sabablari va uni hal qilish yo'llari', *Journal of new century innovations*,75(1), 158-165.Available at:

<https://scientific-jl.com/new/article/view/9991> (Accessed: 31 March 2026)

9.Jahon Banki (2023) *Uzbekistan Labor Market Review*. Washington. Available at: <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/research/publications> (Accessed: 31 March 2026).

10.O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi (2025) *Mehnat bozori statistik to'plami*. Toshkent. Available at: <https://stat.uz/uz/nashrlar/3667-ozbekistonda-mehnat-va-bandlik> (Accessed: 28 March 2026).

11.World Bank (2025). *World Bank Open Data*. Available at: <https://data.worldbank.org/> (Accessed 28 March 2026)

12. Stat.uz. (2024). *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi*. Available at: <https://stat.uz/uz/> (Accessed 28 March 2026)



13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4896-sonli qarori, “2020–2026yillarda Mehnat va bandlik sohasini rivojlantirish strategiyasi”, 2020-yil.

14. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hisobotlari, 2023-yil.